

## INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARGA XORIJIY TIL O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

**Shaxnoza Ziyoqulova,**

*Chet tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
[ziyoqulovashaxnoza0@gmail.com](mailto:ziyoqulovashaxnoza0@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola eshitish va ko'rishda nuqsoni bo'lgan talabalarga inklyuziv ta'lim sharoitida ingliz tilini o'rgatishning samarali strategiyalari va texnologiyalarini ko'rib chiqadi. U individuallashtirilgan, multisensorli yondashuvlar va moslashtirilgan baholash usullarining muhimligini ta'kidlaydi. Ekranni o'qish dasturlari, audio-Braylli materiallar va imo-ishora tili bilan birlashtirilgan resurslar kabi yordamchi vositalarning roli ta'kidlangan. Tadqiqot shuningdek, asosiy muammolar va yechimlarni aniqlash uchun O'zbekiston, AQSh va Yevropa amaliyotlarini taqqoslaydi. O'qituvchilar malakasini oshirish va inklyuziv ta'lim muhitini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, chet tilini o'rgatish, eshitish qobiliyatining buzilishi, ko'rish buzilishi, yordamchi texnologiya, tabaqalashtirilgan ko'rsatma, maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun ingliz tili.

**Abstract.** The article analyses successful methods and technology for instructing English to learners with hearing and visual impairments within inclusive educational environments. It underscores the significance of personalised, multimodal strategies and modified evaluation techniques. The significance of assistive technologies, including screen readers, audio-Braille materials, and sign language-integrated resources, is emphasised. The research moreover contrasts methodologies from Uzbekistan, the United States, and Europe to discern principal issues and remedies. Suggestions are offered for enhancing educator training and fostering inclusive learning environments.

**Key words:** Inclusive education; foreign language teaching; hearing impairment; visual impairment; assistive technology; differentiated instruction; English for special needs students.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются эффективные стратегии и технологии обучения английскому языку учащихся с нарушениями слуха и зрения в условиях инклюзивного образования. Подчеркивается важность индивидуализированных, мультисенсорных подходов и адаптированных методов оценки. Подчеркивается роль вспомогательных средств, таких как экранные дикторы, аудиоматериалы Брайля и ресурсы, интегрированные с языком жестов. В исследовании также сравниваются практики Узбекистана, США и Европы для выявления ключевых проблем и решений. Даны рекомендации по улучшению подготовки учителей и инклюзивной среды обучения.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование; преподавание иностранных языков; нарушения слуха; нарушения зрения; вспомогательные технологии; дифференцированное обучение; английский язык для учащихся с особыми потребностями.

**Kirish.** XXI asrda ta'lim jarayonida inklyuziv ta'lim tamoyillari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta'lim – bu jismoniy yoki psixologik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlariga qo'shib, birgalikda ta'lim berishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (CRPD) tomonidan xalqaro darajada qo'llab-quvvatlangan bo'lib, Konvensiyaning 24-moddasida nogironligi bo'lgan shaxslarning hech qanday kamsitishsiz, umumiy ta'lim muassasalarida sifatli ta'lim olish huquqi kafolatlanadi [3]. Tadqiqotlar ham ko'rsatmoqdaki, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni imkon qadar

umumta'lim sinflariga integratsiya qilish ularning o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga sog'lom tengdoshlarida ham turli xil odamlarga nisbatan tushuncha va bag'rikenglikni shakllantiradi[6]. Bugungi globallashtirish davrida xorijiy tilni bilish har bir kishi uchun, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham, keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Xususan, ingliz tili dunyo miqyosida ilm-fan, texnologiya va biznes tili sifatida e'tirof etilib, uni egallash akademik yangiliklardan boxabar bo'lish, zamonaviy kasb-hunarlarni egallash va xalqaro maydonda muloqot qilish imkonini beradi[1;23-28].

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun xorijiy tilni, ayniqsa ingliz tilini o'rganishda individual yondashuv asosiy shartlardan biridir. Ularning tilni o'zlashtirish jarayoni sog'lom tengdoshlariga qaraganda boshqa psixofiziologik xususiyatlarga ega bo'lib, bu ta'lim metodlari, vositalari va baholash shakllarini moslashtirishni talab qiladi. Eshitish va ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda maxsus pedagogika va psixologiya bo'yicha bilimlar zarur.

### Tadqiqot metodlari.

Tadqiqot metodi	Mazmuni
Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish	Inklyuziv ta'lim bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni o'rganish
Taqqoslash metodi	O'zbekiston va xorijiy tajribalarni solishtirish
Pedagogik tahlil	Ta'lim metodlari samaradorligini aniqlash

Ilmiy tadqiqotlar kar (eshitmaydigan) bolalarda eshitish orqali bilvosita o'rganish (incidental learning) imkoniyati yo'qligi sababli ularning atrof-muhitdan axborot olish darajasi pasayishini ko'rsatgan[1].

Bunday o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda asosiy urg'u ko'rish va matn orqali o'qitishga qaratiladi. Chunki eshitishda muammo borligi sababli tinglab tushunish ko'nikmasini to'liq shakllantirish qiyin, shu bois tinglab o'rganishning o'rnini yozma matnlar bilan qoplash tavsiya etiladi. Tadqiqotchilar kar va zaif eshituvchi o'quvchilarga chet tilini o'rgatishda lug'at boyligini oshirish va o'qish malakasini rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Bunda so'z va iboralarni ko'rish orqali (matnli va vizual) idrok etish, zarurat tug'ilganda imo-ishora tili orqali tushuntirish kabilar qo'llaniladi. Masalan, AQShda nogiron bolalar uchun ishlab chiqilgan maxsus ABC dasturida ingliz tilini o'rgatish jarayonida Amerikaning imo-ishora tili (ASL) yordamchi vosita sifatida qo'llanib, bolalarga inglizcha o'qish va yozishni o'rgatish bilan birga, muloqot ehtiyojlarini imo-ishora orqali qondirish kombinatsiyalangan[1].

Shuningdek, nutq tovushlarini farqlash va talaffuzni shakllantirish uchun maxsus vizual fonetik tizimlar va lab oqish (lip-reading) mashqlari qo'llanishi mumkin. Muhimi, eshitish bo'yicha nuqsonli o'quvchilarga dars beruvchi ingliz tili o'qituvchilari maxsus

pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur – chunki oddiy ingliz tili darslarida qo'llaniladigan usullarni bu o'quvchilarga to'g'ridan-to'g'ri tadbiiq etib bo'lmaydi.

Shu maqsadda, mutaxassislar ta'kidlashicha, pedagog kadrlarni tayyorlash dasturlariga inkluziv ta'lim va maxsus metodika bo'yicha alohida kurslar kiritilishi, amaldagi o'qituvchilarning malakasi oshirilishi lozim.

Ko'rish imkoniyatlari cheklangan o'quvchilar tilni o'rganishda asosan eshitish, nutq va taktil sezgi orqali axborot qabul qiladilar. Ular uchun quyidagi resurslar va metodlar tavsiya etiladi:

- Braille yozuvida darsliklar: yozma materiallarni sezib o'qish orqali o'zlashtirish imkonini beradi.
- Audio darsliklar, audiokitoblar: yangi so'zlar va iboralarni eshitib o'rganish asosiy kanal hisoblanadi.
- Nutqni tanib oluvchi texnologiyalar: o'quvchi og'zaki topshiriqni bajaradi va kompyuter uni yozma formatga o'tkazadi.
- Taktil jadvallar va relyefli kartalar: so'z va iboralarni kontekstda anglashda yordam beradi (masalan, joy nomlari yoki jismlarni tasvirlovchi shakllar).
- Ovozli lug'atlar va interaktiv ilovalar: yangi so'zlarning talaffuzi va ma'nosini audio ko'rinishda taklif etadi.
- Rol o'ynash (role-play) faoliyatlari: eshituv, ifoda va muloqotni rivojlantiradi.

Bu o'quvchilar uchun tilni o'rganishda asosiy ehtiyoj – ko'rsatmali materiallarning audio muqobillari, taktil obyektlar va ko'proq og'zaki muloqotga asoslangan dars tashkil etishdir. O'qituvchi so'zlarni aniq talaffuz qilib, asta-sekin izohlab borishi, eshitalayotgan matnni kontekstual tushuntirishi lozim.

Bunday o'quvchilar ingliz tilini asosan eshitish va nutq orqali o'rganadilar. Shu bois, dars metodikasini ishlab chiqishda audio materiallar va og'zaki tushuntirishlar asosiy o'rin tutadi. Tajribali pedagoglar ko'zi ojiz o'quvchilarga chet tilini o'rgatishda ko'p sezgili yondashuv muhim ekanini ta'kidlaydilar: odatda ingliz tili darslarida keng qo'llaniladigan vizual topshiriqlar o'rniga tovushli va taktil faoliyatlar joriy etiladi[5;33-35].

Masalan, yangi lug'at bo'yicha rasmlarni ko'rsatish o'rniga, real ob'ektlarni ushlab ko'rish yoki tovushli tasvirlash (tasvirni og'zaki bayon qilish) usuli qo'llaniladi. Bundan tashqari, tinglab tushunishni rivojlantirish uchun audio dialog va matnlar eshittiriladi, talaffuzni shakllantirish uchun esa o'quvchining og'zaki ishtiroki ko'proq rag'batlantiriladi. Ko'rish nuqsonli bolalarga mo'ljallangan sinflarda guruhlarda ishlash metodini qo'llash ham o'z samarasini beradi – bunda ko'zi ojiz o'quvchini ko'ra oladigan tengdoshlari bilan juftlikda yoki kichik guruhda ishlashga jalb etish lozim[4].

**Natijalar.** Dars jarayonida ko'zi ojiz o'quvchi uchun muqobil formatdagi darsliklar (Braille alifbosida, yirik shriftli yoki audio darsliklar) bilan ta'minlash zarur. Afsuski, odatiy xorijiy til darsliklarini Brayl yozuviga o'girish va audio formatga moslashtirish

ko'p vaqt talab etadi, bu jarayonda xatoliklar chiqishi yoki diakritik belgilarning noto'g'ri berilish xavfi borligi qayd etiladi[4].

Shu sabab, o'qituvchi dars rejalarini tuzishda materiallarni oldindan tayyorlab, og'zaki talqin va taktil materiallar (relyefli sxema va shakllar)ni ko'proq qo'llashi tavsiya etiladi. Umuman olganda, ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ingliz tilini o'qitish metodikasi an'anaviy usullarni kreativ tarzda moslashtirish, ya'ni vizual elementlarning o'rnini eshitish-tuyush elementlari bilan to'ldirishga asoslanadi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyati cheklangan o'quvchilarning xorijiy tilni o'zlashtirishida keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, ko'rish qobiliyati zaif yoki ko'zi ojiz o'quvchilar uchun ekran o'qiydigan dasturlar – masalan, *JAWS* (Job Access With Speech) va *NVDA* (NonVisual Desktop Access) – elektron matnni ovozli sintezator orqali o'qib eshittirish imkonini beradi. Bu orqali o'quvchilar veb-sahifalar, PDF fayllar va elektron darsliklar bilan mustaqil ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi[6]. Shuningdek, matnni ovozga aylantiruvchi (text-to-speech) texnologiyalar, masalan, *VoiceOver* (iOS qurilmalari uchun) yoki *TalkBack* (Android qurilmalari uchun) yordamida ingliz tilidagi materiallar qulay shaklda eshittiriladi, bu esa nafaqat o'qish, balki talaffuzni ham rivojlantiradi.

Audio-braille darsliklar va raqamli Braille-displeylar ham ko'zi ojiz o'quvchilar uchun muhim manba bo'lib, matnni taktil sezgi orqali idrok qilish imkonini beradi. Bu vositalar o'quvchilarning mustaqil o'qib, yozma topshiriqlarni bajara olishini ta'minlaydi[5].

Eshitish qobiliyati cheklangan o'quvchilar uchun esa subtitrsiz va subtitrli videodarslar, imo-ishora tili bilan birlashtirilgan animatsion darslar (masalan, *ASL Stories* yoki *SignSchool*) xorijiy til o'rganish jarayonini ancha yengillashtiradi. Videodarslar kontekstual o'rganishga asoslanib, talaffuz va grammatikaning vizual izohlanishini ta'minlaydi. Bunday multimodal yondashuvlar nafaqat axborotga kirish imkoniyatini kengaytiradi, balki "har bir o'quvchi o'ziga mos formatda o'rganish imkoniga ega bo'lishi kerak" degan inklyuziv ta'lim tamoyilini amalda ro'yobga chiqaradi[1].

Shuningdek, interaktiv mobil ilovalar – masalan, *LingQ*, *Duolingo for Schools* yoki *Quizlet* kabi platformalarning moslashtirilgan versiyalari – o'quvchilarga o'z sur'atida, o'z ehtiyojlariga mos formatda mashq qilish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishini qo'llab-quvvatlaydi, darsdan tashqari vaqtda ham ingliz tilini o'rganishni davom ettirishlariga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarning bunday keng spektri orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilar xorijiy til o'rganishda teng imkoniyatga ega bo'lmoqda. Biroq, ushbu texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun ta'lim muassasalarining texnik jihozlanishi va o'qituvchilarning AKT savodxonligi ham muhim omillar hisoblanadi.

**Muhokama.** Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga xorijiy tilni samarali o'rgatish uchun inklyuziv pedagogikaning moslashtirilgan metodik yondashuvlari qo'llanilishi

zarur. Bunday metodlar o'quvchining jismoniy, hissiy va intellektual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil qilishga asoslanadi. Birinchi navbatda, differensial yondashuv o'quvchilarning individual qobiliyatlari, sezgi kanallari va ta'lim olishi sharoitiga qarab material tanlashni nazarda tutadi. Bu, ayniqsa, eshitish yoki ko'rish imkoniyatida cheklovi bo'lgan o'quvchilar uchun muhim bo'lib, bir xil materialning turli formatlari (masalan, matn, audio, tasvir, imo-ishora) orqali taqdim etilishi kerak[1].

Shuningdek, ko'p sezgili yondashuv (multisensory approach) – ya'ni eshitish, ko'rish, harakat (kinestetik) usullarni birgalikda qo'llash orqali ta'lim berish – til o'zlashtirishni sezilarli darajada yengillashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, multimodal o'rganish muhitida o'quvchilar til birliklarini yaxshiroq eslab qoladi va faol ishtirok etishga moyil bo'ladi[6]. Masalan, yangi so'zlarni audio tarzda eshitish, piktogrammalar bilan bog'lash va jismonan ifodalash orqali ko'p kanalli esda saqlash mexanizmi ishga tushadi.

Hamkorlikdagi o'qitish (co-teaching) modeli esa umumiy ta'lim va maxsus pedagogikani integratsiyalashning samarali shakli sifatida tavsiya etiladi. Bu yondashuvda oddiy xorijiy til o'qituvchisi va defektolog (masalan, surdopedagog yoki tiflopedagog) darsni birgalikda rejalashtiradi va olib boradi. Natijada har bir o'quvchi o'z ehtiyojiga mos ravishda qo'llab-quvvatlanadi. Bu metod AQSh va Yevropada keng qo'llanib, inklyuziv muhitda muvaffaqiyatli o'qitishning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan[2].

Bundan tashqari, moslashtirilgan baholash tizimi imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun o'zlashtirish darajasini aniqlashda adolatli yondashuvni ta'minlaydi. Masalan, yozma test o'rniga og'zaki suhbat, ovozli topshiriqlar, Brayl shriftida yozilgan savollar yoki qo'shimcha vaqt berish orqali baholash imkoniyati yaratiladi. Har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojini inobatga olgan holda baholash — ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi[5].

Shunday qilib, yuqoridagi metodikalar nafaqat til o'rganish samaradorligini oshiradi, balki o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, jamoadagi ijtimoiylashuvini ta'minlaydi va eng muhimi — ta'limda tenglik va inklyuziya prinsiplarini amalda ro'yobga chiqaradi.

**Xulosa** qilib aytganda, inklyuziv ta'lim tizimida eshitish va ko'rish qobiliyati zaif o'quvchilarga ingliz tilini o'qitish hozirgi zamon pedagogikasining muhim va dolzarb yo'nalishidir. Bunday o'quvchilarga chet tilini muvaffaqiyatli o'rgatish uchun kompleks yondashuv zarur: ta'lim metodikasini o'quvchilarning maxsus ehtiyojlariga moslashtirish, zamonaviy raqamli va assistiv texnologiyalardan faol foydalanish, dars jarayoniga kerakli mutaxassislarni jalb etish va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish lozim. O'zbekiston misolida inklyuziv ta'limga o'tishda qator ijobiy qadamlar qo'yilayotgan bo'lsa-da, xorijiy (xususan, AQSh va Yevropa) tajribani chuqur o'rganish va mahalliy sharoitga mos tarzda tatbiq etish zarurligi ko'rinib turibdi. Rivojlangan davlatlar tajribasi nogiron bolalarni alohida izolyatsiya qilmasdan, ularni jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida tarbiyalash eng

samarali yo‘l ekanini isbotladi. Zero, barcha bolalar qobiliyatlari va imkoniyatlaridan qat'i nazar, birgalikda o‘qib-ulğaysalar, jamiyat yanada adil va inklyuziv bo‘ladi.

Inklyuziv ta'limni to‘laqonli joriy etish, xususan eshitish va ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilarning sifatli chet tili ta'limini ta'minlash uzluksiz ilmiy izlanishlar va tashkiliy sa'y-harakatlarni talab qiladi. Kelgusida bu sohada qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish, innovatsion yondashuvlarni sinovdan o‘tkazish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atar, C., Aslan Bağcı, Ö., & Bağcı, H. (2021). *Deaf individuals and English language teaching*. Turkish Online Journal of Educational Technology, 20(4), 23–28.
2. Birinci, F. G. (2014). *Inclusive education practices in foreign language teaching*. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 141, 237–241. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.05.042>
3. Human Rights Watch. (2018). *“Sink or swim”*: Barriers for children with disabilities in the European school system. Retrieved from <https://www.hrw.org/report/2018/08/14/sink-or-swim/barriers-children-disabilities-european-school-system>
4. MIUSA (Mobility International USA). (2019). *Teaching languages to blind and visually impaired students*. Retrieved from <https://www.miusa.org/resource/tipsheet/teachinglanguages>
5. Mirzahamdama, D. (2024). *Teaching English to visually impaired students*. Conference on the Role and Importance of Science in the Modern World, 1(10), 33–35.
6. Peetz, C. (2023). *Creating inclusive classrooms for blind students can benefit everyone*. Education Week. Retrieved from <https://www.edweek.org/teaching-learning/opinion-creating-inclusive-classrooms-for-blind-students-can-benefit-everyone/2023/09>

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934